

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BILISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ VA ƒARB MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

*Esonova Malohat Akilovna*

*Qo'qon davlat pedagogika insituti dotsenti*

*Soliyeva Charosxon*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Xayotimizda chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Xalqimizning asriy orzusi mustaqillikka tinch, parlament yo'li bilan erishdik. Istiqlol tufayli o'zbek halqi o'zining haqiqiy tarixini, jahon tan olgan madaniy va ma'rifiy boylklarini, urf-odat va an'analarini tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblal ko'p bo'lgan. Muxammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid Giyosiddin al-Koshiy, Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz o'z asarlarida arifmetikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdilar, halqimizning milliy iftixori bo'lib qoladilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Biz ularning asarlari bilan tanishib chiqamiz.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy 783-yilda Xorazmda, Xiva shahrida tug'ilgan. Yoshligidan ilm - fanga qiziqqan. Qunt bilan arab, fors, hind va yunon tillarini o'rgangan. Donishmand sifatida tanilgan, IX asr boshlarida o'z davrining katta ilmiy va madaniy markazi hisoblangan Bog'dodga taklif qilingan. Xorazmiy saroyda barakali ijod qilib, Sharqning astlabki akademiyasi («Bayt ul-Hikmat») «Donolar uyi» da faol ishtirok etdi. Xorazmiyning arifmetika va algebraga oid asarlari matematika tarixida yangi davrni o'rta asrlar matematikasi davrini boshlab berdi, hamda matematikaning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi. O'quvchilar algebra, algoritm so'zlarini ko'p eshitishgan. Algebra matematikaning katta bir bo'limi, algoritm esa hozirgi zamon hisob texnikasining, matematikasining asosiy termini. Algebra, algoritm so'zlari matematik, astronom va geograf, hozirgi zamon algebrasining otasi Al- Xorazmiy nomi bilan bog'liqdir. Xorazmiyning matematikaga oid shoh asarlari Fapb va Sharq xalqlari tillariga tarjima qilinib, ko'p asrlardan buyon qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Xorazmiyning «Hind hisobi va sonlari haqida», «Al-Jabr», «Arifmetika», «Marmar soat haqida», «Yer surati», «Tarix kitobi», «Yahudiy eralari va bayramlari» haqida asarlari, ayniqsa, ma'lum va mashhurdir. Abu Ali ibn Sino merosining matematikaga oid qismi sonlar nazariyasi, astronomiya, musiqa va yunon falsafasi an'analaridagi o'zgarmas kvadrivium sohasiga doirdir. «Hujjat al- haqq» («rostlikka dalil») deya ulug'langan qomusiy olimning matematika faniga qo'shgan hissasi ishonchligi bois fan tarixi mutaxassislari undan bugungi kunga qadar foydalanib kelgan. Ibn Sinoning uchta kitobi – «Kitob an-najot», «Donishnoma» va asosan, «Kitob ash-shifo»ga kvadriviumning uch sohasi: geometriya, arifmetika va astronomiyaga oid izlanishlari kiritilgan. Ana shu uchta to'plamga nazariy astronomiya va bizning davrimizgacha yetib kelmagan amaliy astronomiyaga oid tadqiqotlarini qo'shish mumkin.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek 1394-yilda Eronda Sultoniya da tug'ilgan. Ulug'bek - buyuk o'zbek olimi va davlat arbobi. U Amir Temurning (1336-1405) nabirasi. Ulug'bekning otasi Shohrux (1377 -1447) ham davlat arbobi bo'lgan. Asli nomi Muhammad Tarag'ay. 1409-yilda Shohrux otasining davlati o'rnida ikkita mustaqil davlat tuzdi. Ulug'bek ilmiy yo'nalishining shakllanishiga Samarqandda «Astronomiya maktabi»ning vujudga kelishga sabab bo'ldi. Ulug'bek maktabining muhim ilmiy ishlaridan biri «Ulug'bek ziji» yoki «Ziji Ko'ragoniy» deb ataluvchi astronomik jadvallardir. «Zij» kirish, ya'ni nazariy qism va Ulug'bek rasadxonasida o'tkazilgan kuzatishlar

bo'yicha tuzilgan jadvallardan iborat. "Zij"da yil hisobi jadvallari, trigonometrik jadvallar, sayyoralar harakat jadvali va yulduzlar ro'yxati bor. Ulug'bekning trigonometrik jadvallari 10 ta o'nli xona aniqligida hisoblangan. O'rta Osiyolik atoqli matematik va astronomlardan biri Jamshid Ibn Mas'ud Ibn Mahmud G'iyosiddin al Koshiydir. U taxminan 1430-yilda Samarqandda vafot etgan. Uni "Koshoniy" ham deb atashadi, chunki u Eronning Koshon shahrida tug'ilgan. Koshoniyning tarjimai holi haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. Ba'zi matematika tarixchilarining yozishiga qaraganda, u boshlang'ich ma'lumotni o'z ona shahri Koshonda olgan. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda matematik tasavvurlarnirivojlantirish masalalari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda va boshlang'ich maktab yoshida elementar matematik tasavvurlarini taraqqiy ettirish muammolari ustida ilmiy ishlar olib borgan pedagoglardan Y.I. Tixeyeva bolalarni aqliy tomondan tarbiyalashda boshlang'ich matematik tushunchalarga katta ahamiyat beradi. Y.I. Tixeyeva: "Bola bilimni hayotdan olishi kerak, hayotning o'zi har qadamda bolaning oldiga amaliy vazifalarni qo'yadi, ya'ni o'lchash, sanash, ayirishlar. Y.I. Tixeeva birinchi bo'lib matematik tasavvurlarga o'rgatish dastursini tuzishga urinib ko'radi. Son - sanoqqa o'rgatishda o'n ichida sanash, bir va ko'p tushunchasidan boshlab raqamlar bilan tanishtirish, soat bilan tanishtirish, masalalar yechish, kasrlar bilan tanishtirish, kattalik va shakllar bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. Tixeeva sanamasdan sonlarni bir ko'rishda bilib olish metodini tavsiya etadi, ya'ni monografik metod asosida. A.M. Leushina o'zining butun hayotiy faoliyati davomida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga sanoqni o'rgatish masalalari bo'yicha ish olib bordi, Leushinaning pedagogik ishlari: Bolalarni bog'chada sanashga o'rgatishga tayyorlash temasi 1959 -1961-yillardan boshlab bosilib chiqdi. "Bolalar bog'chasida sanoq mashg'uloti" 1963-yilda bosilib chiqdi. Juda ko'p maqolalari "Дошкольное воспитание" jurnalida e'lon qilingan. Pedagogika institutlari uchun "Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish" kitobi bosilib chiqdi. Leushina tomonidan 1962-63- yillardagi dastur ham ishlab chiqarilgan. N.Blixer ko'p yillar bolalarda matematik tasavvurlarini o'stirish masalalari ustida ishladi. U quyidagi kitoblarni yozdi: "Bolalar bog'chasi va nulevoy guruhda matematika", "Didaktik o'yinlar", "Birinchi sinfda qiziqarli o'yinlar va mashqlar", 1932, 1934, 1938, 1945, 1958-yillardagi tarbiyal dasturlarining matematikaga o'rgatish bo'limini ishlab chiqdi. F.N.Blixer bolalarni sanashga o'rgatish kerak emas, sharoit yaratish kerak deydi

Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqishdan iborat o'ta dolzarb vazifa yuklatildi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta'minlovchi ta'lim tashkiloti sifatida namoyon bo'lishi ham o'rganilmagan. Shunday vaqtda o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta'lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas. Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- Maktabgacha ta'lim muassasalarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy-asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;
- maktabgacha ta'lim muassasasida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;
- Ta'lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko'ra bilish mayjud emasligi tufayli ta'lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta'sir amaliyoti;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda maktabgacha

ta'lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega bo'lgan potensialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;

So'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi MTTga qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2022—2026 -Yillarga Mòljallangan yangi Òzbekistonning taraqqiyot strategiyasi tòg'risida Toshkent sh , 2022-yil 28-yanvar,PF-60-son son Farmoniga 1 va 2-Ilova
2. Djanpeisova G.E, Xodjimuratova B.N. Matematik tasavvurlarni shakllantirish "Innovatsiya-Ziyo" 2022.
3. Ilk qadam davlat o'quv dasturi(takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022
4. Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish
5. chora tadbirlari tog'risida.O'zbekiston Respublilasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 2020 yil,9-mart
6. Maktabhacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti 802-sonli Qaror.
7. N.G. Malikovna, MG Bakhodirovna, EDUCATION OF CHILDREN IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND FRIENDSHIP OF PEOPLES IN THE FAMILY.-International Journal of Early Childhood Special ..., 2022
8. G. Nazirova, FORMATION OF A SENSE OF NATIONAL PRIDE AMONG IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ORAL FOLK ART-AS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY - Science and Innovation, 2022
9. Anvarovna, Sulstonova Nurxon. "O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
10. Anvarovna, Sulstonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
11. Anvarovna, Sulstonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).